



SHARQ XALQLARI OMMAVIY ONGDA AN'ANAVIY ELEMENRTLARNING O'RNI VA KO'RINISHLARI

Mardonova Nigora Zafarovna

mardonova.nigora@icloud.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti*

Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Sharq xalqlari ommaviy ongida an'anaviy elementlarning o'rne, ularning shakllanish jarayoni, jamiyat hayotidagi roli va asosiy ko'rinishlari sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, an'analarning tarixiy ildizlari, ularning madaniyat, din, urf-odat va ijtimoiy qadriyatlar bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Maqolada an'anaviy elementlarning ommaviy ongni shakllantirishdagi ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o'rne va zamonaviy jamiyat sharoitida saqlanib qolish mexanizmlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy ong, an'ana, Sharq xalqlari, urf-odat, qadriyat, madaniyat.

Kirish.

Jamiyat hayotida ommaviy ong muhim o'rin egallaydi. Ommaviy ong bu jamiyatdagi insonlarning umumiy fikrlari, qarashlari, qadriyatlari va an'analardan iborat bo'ladi. Ayniqsa Sharq xalqlarida ommaviy ong ko'proq an'anaviy elementlar asosida shakllangan. Chunki Sharq jamiyatlarida qadimdan urf-odatlar, diniy qarashlar, oilaviy qadriyatlar va milliy an'analarda muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. An'analarda jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular orqali insonlar o'z xulq-atvorini shakllantiradi, kattalarni hurmat qilish, mehmondo'st bo'lish, oila qadriyatlarini asrash kabi fazilatlarni o'rganadi. Mashhur sotsiolog Émile Durkheim ham jamiyatning birligi umumiy qadriyatlar va an'analarda orqali saqlanishini ta'kidlagan. Shuningdek, Max Weber an'analarda inson xatti-harakatining muhim asoslaridan biri ekanligini aytgan. Sharq mutafakkiri Ibn Khaldun esa jamiyatning barqarorligi urf-odat va an'analarga bog'liq ekanligini tushuntirgan.

Bugungi kunda globallashuv jarayoniga qaramasdan, Sharq xalqlari o'z an'analarni saqlab kelmoqda. Bu an'analarda ommaviy ongning shakllanishida, yoshlar tarbiyasida va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli Sharq xalqlari ommaviy ongida an'anaviy elementlarning o'rne va ko'rinishlarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Asosiy Qism



OMMAVIY ONG TUSHUNCHASI VA UNING SOTSIOLOGIK MOHIYATI Ommaviy ong tushunchasi. Jamiyat hayotida ong muhim o‘rin egallaydi. Ong insonning borliqni anglash, tushunish va unga munosabat bildirish qobiliyatidir. Lekin inson faqat individual ongga ega bo‘lib qolmay, balki jamiyatda yashagani sababli ommaviy ongning ham bir qismi hisoblanadi. Ommaviy ong bu jamiyatdagi katta guruhlar, millatlar va xalqlarning umumiy fikrlari, qarashlari, tasavvurlari va qadriyatlarining yig‘indisidir. Ommaviy ong individual onglarning oddiy yig‘indisi emas, balki jamiyat hayoti, tarixiy tajribasi, madaniyati, dini va an‘analari asosida shakllangan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ommaviy ong orqali jamiyat a‘zolari dunyoni tushunadi, unga baho beradi va o‘z xatti-harakatlarini belgilaydi. Mashhur sotsiolog Émile Durkheim ommaviy ongni jamiyatni birlashtiruvchi asosiy omillardan biri deb hisoblagan. U ommaviy ongni “kollektiv ong” deb atagan va bu jamiyat a‘zolarining umumiy e‘tiqodlari va qadriyatlari majmuasi ekanligini ta’kidlagan. Uning fikricha, aynan ommaviy ong jamiyatning birligi va barqarorligini ta’minlaydi. Ommaviy ong jamiyatdagi barcha insonlarga ta’sir qiladi. Inson tug‘ilgan paytdan boshlab jamiyatdagi an‘analar, urf-odatlar, diniy qarashlar va qadriyatlar ta’sirida shakllanadi. Shu sababli insonning dunyoqarashi, fikrlashi va xulq-atvori ommaviy ong bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Sharq jamiyatlarida kattalarni hurmat qilish muhim qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyat ommaviy ong orqali shakllangan va avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Har bir inson bu qadriyatni bolaligidan o‘rganadi va unga amal qiladi. Bu esa ommaviy ongning inson hayotiga qanchalik katta ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shuningdek, ommaviy ong jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Agar jamiyatda umumiy qadriyatlar va qarashlar mavjud bo‘lsa, jamiyat barqaror bo‘ladi. Aksincha, agar umumiy qadriyatlar yo‘qolsa, jamiyatda tartibsizlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli ommaviy ong jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ommaviy ongning shakllanish omillari. Ommaviy ong uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanadi. U bir nechta muhim omillar ta’sirida rivojlanadi. Birinchi omil — tarixiy omil. Har bir jamiyat o‘z tarixiga ega. Jamiyatning tarixiy tajribasi, boshidan kechirgan voqealari, urushlar, rivojlanish jarayonlari ommaviy ongning shakllanishiga ta’sir qiladi. Masalan, Sharq xalqlarida jamoaviylik va o‘zaro yordam qadriyatlari tarixiy jarayonlar davomida shakllangan. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham ommaviy ongning muhim qismi hisoblanadi. Ikkinchi omil — madaniyat. Madaniyat bu jamiyatning urf-odatlarini, an‘analari, san‘ati, tili va qadriyatlaridan iborat. Madaniyat ommaviy ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Inson madaniyat orqali qanday yashash, qanday fikrlash va qanday xulq-atvor ko‘rsatishni o‘rganadi. Mashhur sotsiolog Max Weber jamiyatda madaniyat va qadriyatlar inson



xulq-atvoriga kuchli ta'sir qilishini ta'kidlagan . Uning fikricha, inson harakatlari ko'pincha an'analar va qadriyatlar asosida shakllanadi. Uchinchi omil — din. Din ham ommaviy ongning shakllantirishida muhim rol o'ynaydi. Din insonlarga yaxshilik va yomonlik, to'g'ri va noto'g'ri haqida tushuncha beradi. Sharq jamiyatlarida din muhim o'rin tutadi va ommaviy ongning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, islom dini Sharq xalqlarining ommaviy ongiga katta ta'sir ko'rsatgan. Halollik, adolat, kattalarni hurmat qilish kabi qadriyatlar diniy qarashlar asosida shakllangan. To'rtinchi omil — an'analar va urf-odatlar. An'analar ommaviy ongning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. An'analar orqali jamiyat o'z qadriyatlarini saqlab qoladi va avloddan avlodga o'tkazadi. Sharq mutafakkiri Ibn Khaldun jamiyatning rivojlanishida an'analar muhim rol o'ynashini ta'kidlagan . Uning fikricha, an'analar jamiyatni birlashtiradi va uning barqarorligini ta'minlaydi.

Ommaviy ongning jamiyat hayotidagi roli. Ommaviy ong jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, u jamiyat a'zolarini birlashtiradi. Agar jamiyatda umumiy qadriyatlar va qarashlar mavjud bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi. Ikkinchidan, ommaviy ong inson xulq-atvorini tartibga soladi. Bu orqali inson qanday yashash, qanday munosabatda bo'lish kerakligini biladi. Masalan, Sharq jamiyatlarida mehmondo'stlik muhim qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyat ommaviy ong orqali shakllangan va jamiyat a'zolarining xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Uchinchidan, ommaviy ong jamiyat barqarorligini ta'minlaydi. Agar jamiyatda umumiy qadriyatlar mavjud bo'lsa, jamiyat rivojlanadi. To'rtinchidan, ommaviy ong yoshlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Yoshlar jamiyatdagi an'analar va qadriyatlarni o'rganadi va ularga amal qiladi. Shu sababli ommaviy ong jamiyat rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

An'ana tushunchasi. An'ana — bu jamiyatda uzoq vaqt davomida shakllangan va avloddan avlodga o'tgan urf-odatlar, qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari . U oddiy odat emas, balki jamiyat tomonidan qabul qilingan va hurmat qilinadigan normadir. Sharq xalqlarida ota-onani hurmat qilish, mehmondo'stlik va oila qadriyatlari an'anaviy elementlarga kiradi .An'analarning shakllanishi. An'analar tarixiy jarayon davomida paydo bo'ladi. Sharq xalqlari an'analari ming yillik tarixga ega bo'lib, ular orqali jamiyat qadriyatlarini saqlaydi . Max Weber fikricha, odamlar ba'zi harakatlarni ongli hisob-kitobsiz, odat va an'ana asosida bajaradi. Ibn Khaldun esa an'analar jamiyat barqarorligini ta'minlashini ta'kidlagan.

An'analar va qadriyatlar. Qadriyatlar jamiyat tomonidan muhim deb hisoblangan me'yorlar bo'lsa, an'ana ularning amaliy ifodasidir. Masalan, oilaga sadoqat qadriyat bo'lsa, to'y marosimi shu qadriyatni aks ettiradi. Sharq jamiyatlarida kattalarni hurmat qilish, mehmondo'stlik va jamoaviylik asosiy



qadriyatlar sifatida an'analar orqali bolalarga singdiriladi . Sharq xalqlarida an'anaviy elementlar. Diniy an'analar: halollik, adolat, sabr-toqat kabi qadriyatlar diniy asosda shakllangan. Oilaviy an'analar: oila qadriyatlari va qarindoshlik aloqalari. Marosim va bayramlar: Navro'z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti jamiyatni birlashtiradi. Axloqiy an'analar: odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kattalarni hurmat qilish.

Xulosa.

Sharq xalqlari ommaviy ongida an'anaviy elementlar juda katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. An'analar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatni birlashtiradi, barqarorligini ta'minlaydi va avloddan avlodga qadriyatlarni yetkazadi. Ommaviy ong shakllanishida tarix, madaniyat, din va urf-odatlar muhim rol o'ynaydi. Sharq xalqlarida diniy an'analar, oilaviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va marosimlar inson xulq-atvorini tartibga soladi va yoshlar tarbiyasida muhim vosita sifatida ishlatiladi. Bugungi globallashuv sharoitida ham an'analar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular jamiyatning ruhiy va madaniy merosini saqlash, yoshlarni tarbiyalash va umumiy qadriyatlarni mustahkamlashda davom etmoqda. Shu bois Sharq xalqlari ommaviy ongida an'anaviy elementlarning o'rni nafaqat tarixiy, balki zamonaviy jihatdan ham dolzarb va muhimdir. Talaba sifatida men xulosa qilamanki, an'analar jamiyatni shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, ularni o'rganish va saqlash har bir jamiyat a'zosi uchun zarur

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Durkheim Émile. — The Division of Labor in Society, 1893, 378 bet
2. Weber Max. — Economy and Society, 1922, 1469 bet
3. Ibn Khaldun. — Muqaddima, 1377, 544 bet
4. Giddens Anthony. — Sociology, 2006, 101 bet
5. Smelser Neil. — Sociology, 1994, 102 bet
6. Berger Peter, Luckmann Thomas. — The Social Construction of Reality, 1966, 224 bet
7. Parsons Talcott. — The Structure of Social Action, 1937, 560 bet
8. Huntington Samuel. — Political Order in Changing Societies, 1968, 427 bet